



INTERDISCIPLINARY APPROACH TO IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH IN HIGHER MEDICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Isroilova E'zoza Akmal qizi

Basic doctoral student, Tashkent State Pedagogical University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15111027>

ARTICLE INFO

Received: 27th March 2025

Accepted: 30th March 2025

Online: 31st March 2025

KEYWORDS

English language, higher medical educational institutions, interdisciplinary approach, professional English, communicative competence, innovative methods, interactive approach, integrated education.

ABSTRACT

This article analyzes the significance and effectiveness of an interdisciplinary approach in the process of teaching English in higher medical educational institutions. The integration of medical disciplines plays a crucial role in improving the methodology of English language teaching. The study examines the role of interdisciplinary learning in developing linguistic and professional competencies among medical students. Additionally, the article discusses ways to enhance the effectiveness of English language instruction through modern technologies, innovative pedagogical methods, and interactive approaches.

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ ПОДХОД К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ МЕДИЦИНСКИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Исроилова Эъзоза Акмал кизи

Докторант, Ташкентский государственный педагогический университет

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15111027>

ARTICLE INFO

Received: 27th March 2025

Accepted: 30th March 2025

Online: 31st March 2025

KEYWORDS

Английский язык, высшие медицинские учебные заведения, междисциплинарный подход, профессиональный английский язык, коммуникативная компетенция, инновационные методы, интерактивный подход, интегрированное обучение.

ABSTRACT

В данной статье анализируется значение и эффективность междисциплинарного подхода в процессе преподавания английского языка в высших медицинских учебных заведениях. Интеграция медицинских дисциплин играет важную роль в совершенствовании методики преподавания английского языка. В ходе исследования рассматривается влияние междисциплинарного подхода на развитие лингвистических и профессиональных компетенций у студентов-медиков. Также обсуждаются пути повышения эффективности преподавания английского языка с использованием современных технологий, инновационных педагогических методов и интерактивных подходов.



**FANLARARO ALOQADORLIK ASOSIDA TIBBIYOT OLIY TA'LIM
MUASSASALARIDA INGLIZ TILINI O'QITISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Isroilova E'zoza Akmal qizi

Tayanch doktorant, Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15111027>

ARTICLE INFO

Received: 27th March 2025

Accepted: 30th March 2025

Online: 31st March 2025

KEYWORDS

Ingliz tili, tibbiyot oliy ta'lim muassasalari, fanlararo aloqadorlik, kasbiy ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, innovatsion metodlar, interfaol yondashuv, integratsiyalashgan ta'lim.

ABSTRACT

Ushbu maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikning ahamiyati va samaradorligi tahlil qilinadi. Ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishda tibbiy fanlar bilan integratsiyalashuv muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot jarayonida fanlararo yondashuvning tibbiyot talabalari uchun lingvistik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada zamonaviy texnologiyalar, innovatsion pedagogik usullar va interfaol metodlar asosida ingliz tilini o'qitish samaradorligini oshirish yo'llari haqida so'z boradi.

KIRISH

Hozirgi kunda ingliz tilining xalqaro ilmiy va tibbiy muloqot tili sifatidagi roli tobora ortib bormoqda. Globalizatsiya jarayonlari natijasida tibbiyot sohasi mutaxassislari xalqaro miqyosda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'lib, bu esa ingliz tilini bilish zaruratini kuchaytirmoqda. Shu sababli, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonini takomillashtirish, uni tibbiy fanlar bilan uzviy bog'liq holda olib borish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini o'qitishda fanlararo aloqadorlik metodologiyasini qo'llash til o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Ushbu yondashuv orqali talabalarga nafaqat umumiy til bilimlari, balki tibbiyot sohasi bilan bog'liq maxsus lingvistik kompetensiyalar ham beriladi. Bu metodologiya talabalarning kasbiy rivojlanishiga hamda xalqaro ilmiy hamkorlikda faol ishtirok etishiga yordam beradi.

METODLAR

Bugungi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayoni zamonaviy pedagogik yondashuvlar va fanlararo aloqadorlik tamoyillari asosida takomillashmoqda. Ingliz tilini tibbiyot mutaxassisligi bilan uyg'unlashtirib o'qitish nafaqat til kompetensiyalarini rivojlantirishga, balki talabalar kasbiy terminologiyani chuqurroq o'zlashtirishiga ham xizmat qiladi. Bu jarayonda quyidagi muhim metodologik yondashuvlar asosiy rol o'ynaydi:

1. **Integrativ yondashuv** - Ingliz tili fanini tibbiyot sohasiga bog'liq holda o'qitish integrativ yondashuvni talab etadi. Bunda ingliz tili darslarida tibbiy fanlar bilan bog'liq materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, anatomiya, fiziologiya, farmakologiya, xirurgiya kabi sohalardagi ilmiy matnlar, maqolalar, bemor kasallik tarixlari, diagnostika va davolash usullari haqida ingliz tilidagi materiallar o'quv jarayoniga kiritiladi. Bu usul nafaqat talabalar lingvistik ko'nikmalarini rivojlantiradi, balki ularning kasbiy sohada ingliz tilini



amaliy qo'llashga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Natijada talabalar kelajakda xorijiy ilmiy adabiyotlarni mustaqil o'qish, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. **Kommunikativ metodlar** - Til o'rganish jarayoni samarali bo'lishi uchun talabalar o'zaro faol muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Kommunikativ yondashuv interfaol o'yinlar, rolli suhbatlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, kasbiy stsenariylarni ijro etish kabi metodlarni o'z ichiga oladi. Masalan, tibbiyot talabalariga bemor bilan muloqot qilish, kasallik tashxisini qo'yish, davolash usullarini tavsiya qilish kabi topshiriqlar berilishi mumkin. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida guruhli muhokamalar tashkil etilib, real hayotga yaqin bo'lgan klinik holatlar ingliz tilida tahlil qilinadi. Bu esa nafaqat talabalar lingvistik bilimlarini oshirishga, balki ularga kasbiy jihatdan muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

3. **Innovatsion texnologiyalar** - Zamonaviy texnologiyalar tibbiyot ta'limida katta rol o'ynaydi va ingliz tilini o'qitishda ham bu vositalardan samarali foydalanish muhimdir. Raqamli resurslar, virtual simulyatsiyalar va onlayn platformalar talabalar uchun ingliz tilini o'rganishda keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, "Virtual Anatomy" kabi dasturlar orqali talabalarga anatomiya bo'yicha ingliz tilida tushuntirishlar beriladi, "Moodle", "Coursera" va "EdX" kabi onlayn ta'lim platformalari orqali tibbiyot bo'yicha xalqaro kurslardan foydalanish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, ingliz tilida tibbiy so'z boyligini oshirish uchun mobil ilovalar va interaktiv lug'atlardan foydalanish ham muhim. Raqamli texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar talabalar uchun yanada qiziqarli va samarali bo'lib, ularning motivatsiyasini oshirishga xizmat qiladi.

4. **Autentik materiallar bilan ishlash** - Tibbiyot talabalariga kasbiy til ko'nikmalarini rivojlantirish uchun autentik materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro ilmiy maqolalar, tibbiy jurnallar, bemor kasallik tarixlari va qo'llanmalar orqali talabalar real hayotdagi terminologiya bilan tanishadilar. Bu materiallar orqali talabalar nafaqat ingliz tilidagi ilmiy tilda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradilar, balki ilmiy maqola yozish, ilmiy tadqiqot olib borish va xalqaro anjumanlarda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan akademik yozuv va og'zaki nutq ko'nikmalarini ham shakllantiradilar. Bunda talabalar tomonidan ingliz tilida kasbiy terminlarni to'g'ri ishlatish, grammatik jihatdan aniq va ravon fikr bildirish, yozma va og'zaki nutqda rasmiy uslubdan foydalana olish malakalari rivojlantiriladi.

Qisqacha qilib aytganda, fanlararo aloqadorlik asosida ingliz tilini tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qitish metodologiyasini shakllantirish kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan samarali strategiyalardan biridir. Integrativ yondashuv, kommunikativ metodlar, innovatsion texnologiyalar va autentik materiallardan foydalanish talabalarning tibbiyot sohasida ingliz tilini o'zlashtirishiga, xalqaro miqyosda faoliyat yuritishiga va ilmiy-tadqiqot faoliyatida muvaffaqiyatli ishtirok etishiga xizmat qiladi. Shu bois, ushbu metodologiyani yanada takomillashtirish va tibbiyot talabalari uchun moslashtirilgan maxsus o'quv dasturlarini ishlab chiqish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishning zamonaviy metodologiyasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar fanlararo yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Ko'pgina tadqiqotlarda tibbiyot va lingvistika fanlari integratsiyasi asosida ta'lim berish



talabalarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishga xizmat qilishi ta'kidlanadi. Xususan, zamonaviy ta'lim metodlari, innovatsion texnologiyalar va kommunikativ yondashuvlarning samaradorligi bo'yicha ko'plab ilmiy maqolalar mavjud.

Ilmiy adabiyotlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish bo'yicha eng samarali usullardan biri sifatida fanlararo integratsiya yondashuvi alohida ajratib ko'rsatiladi. Xalqaro tadqiqotchilar (Harden, 2000; Coyle et al., 2010) tomonidan ta'kidlanishicha, tibbiyot mutaxassislari uchun ingliz tilini an'anaviy grammatik qoidalarga asoslangan yondashuvdan farqli o'laroq, kasbiy faoliyatga yo'naltirilgan holda o'qitish talabalar tomonidan tilning tezroq o'zlashtirilishiga olib keladi. Bunday yondashuvda ingliz tili nafaqat aloqa vositasi, balki kasbiy ma'lumotni o'zlashtirishning muhim mexanizmi sifatida qaraladi.

Shuningdek, til o'rganishning kommunikativ metodlari samaradorligi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan isbotlangan. Masalan, Richards va Rodgers (2001) o'z tadqiqotlarida til o'rganishda interfaol metodlarning, jumladan, rolli o'yinlar, muloqotga asoslangan topshiriqlarning muhimligini ta'kidlaydilar. Aynan tibbiyot sohasida til o'rgatuvchi mutaxassislar (Dudley-Evans & St John, 1998) esa, kasbiy sohalar uchun moslashtirilgan til kurslari tibbiyot mutaxassislarining muloqot kompetensiyalarini oshirishda muhim omil ekanligini ta'kidlaydilar. Shunday qilib, kommunikativ metodlar tibbiyot talabalarini uchun chet tilini o'rganishda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki kasbiy nutq va yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Innovatsion texnologiyalarning o'rni ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, onlayn platformalar, virtual simulyatsiyalar va interaktiv o'quv materiallaridan foydalanish til o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradi (Mishan, 2005; Warschauer, 2013). Masalan, Massively Open Online Courses (MOOC) platformalarida tibbiyotga ixtisoslashgan ingliz tili kurslari mavjud bo'lib, ular tibbiyot talabalariga xalqaro miqyosdagi ma'ruzalar va ta'lim resurslaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Bunday texnologiyalar an'anaviy dars jarayoniga nisbatan talabalarni ko'proq mustaqil ta'lim olishga undaydi va ularning lingvistik ko'nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi.

Bundan tashqari, autentik materiallardan foydalanish ham tibbiyot sohasida chet tilini o'qitish samaradorligini oshiruvchi omillardan biri sifatida ko'rib chiqiladi. Hutchinson va Waters (1987) tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kasbiy yo'naltirilgan til o'qitishda real hayotda qo'llaniladigan ilmiy maqolalar, darsliklar va kasbiy jurnallardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishini ko'rsatgan. Ushbu usul talabalarni tibbiyot sohasida faol ishlatiladigan terminologiya bilan yaqindan tanishtiradi hamda ilmiy matnlarni mustaqil tahlil qilish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun fanlararo integratsiya, kommunikativ yondashuv, innovatsion texnologiyalar va autentik materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodologiyalar kombinatsiyasi tibbiyot talabalarining kasbiy til kompetensiyalarini rivojlantirishga, ularning xalqaro ilmiy hamjamiyatga integratsiyalashuviga va kelajakdagi kasbiy faoliyatida chet tilidan samarali foydalanishiga zamin yaratadi.

NATIJAR VA MUHOKAMA



Fanlararo yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida samarali natijalar berayotgan usullardan biri hisoblanadi. Bu yondashuv til va kasbiy bilimlarning uyg'un rivojlanishini ta'minlab, talabalar uchun til o'rganish jarayonini yanada samarali va amaliy jihatdan foydali qiladi. Ingliz tili darslarida tibbiyot fanlari bilan bog'liq materiallardan foydalanish orqali talabalar kasbiy terminologiyani yaxshiroq o'zlashtiradi va tibbiy matnlarni tushunish ko'nikmalarini oshiradi. Natijada, ularning xalqaro ilmiy nashrlarni o'qish va tahlil qilish, ilmiy anjumanlarda qatnashish hamda kasbiy faoliyatda ingliz tilidan foydalanish qobiliyati rivojlanadi.

Bu yondashuv talabalar muloqot kompetensiyalarini ham sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Bemorlar bilan samarali muloqot qilish, diagnostika natijalarini tushuntirish va ilmiy materiallarni tahlil qilish jarayonlarida talabalar real hayotiy vaziyatlarga yaqinlashtirilgan topshiriqlar orqali tilni amaliy jihatdan qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Interfaol metodlar, jumladan, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, guruhli loyihalar va simulyatsiyalar o'quv jarayonini jonlantiradi va o'zlashtirish samaradorligini oshiradi.

Fanlararo yondashuvning yana bir muhim jihati – uning xalqaro hamkorlik uchun keng imkoniyatlar yaratishidir. Ingliz tilini bilish talabalar uchun xorijiy ilmiy nashrlarni mustaqil o'qish, xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish va xorijiy universitetlar bilan akademik almashinuv dasturlariga qo'shilish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, xalqaro sertifikatlariga tayyorgarlik ko'rishda ham ushbu yondashuvning o'rni beqiyosdir. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli resurslar, virtual simulyatsiyalar va onlayn ta'lim platformalaridan foydalanish talabalar uchun o'zlashtirish jarayonini qulay va samarali qiladi. Ilmiy maqolalar va tibbiy jurnallardan foydalangan holda kasbiy ingliz tilini rivojlantirish talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatida tilni to'g'ri ishlatishga tayyorlaydi.

Umuman olganda, fanlararo yondashuv asosida ingliz tilini o'qitish tibbiyot talabalari uchun nafaqat lingvistik bilimlarni oshirish, balki kasbiy rivojlanish va xalqaro miqyosda raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini ham ta'minlaydi. Bu yondashuv an'anaviy usullarga qaraganda ko'proq amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, talabalar uchun real kasbiy muhitda ingliz tilini o'zlashtirishga imkon yaratadi. Shu sababli, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ushbu metodologiyani yanada takomillashtirish va keng joriy etish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

XULOSA

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini fanlararo aloqadorlik asosida o'qitish talabalarning lingvistik va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda samarali strategiya hisoblanadi. Ushbu metodologiya nafaqat ingliz tilini bilish darajasini oshirishga, balki kelajakdagi professional faoliyatda muvaffaqiyatga erishishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, o'quv dasturlarini innovatsion yondashuvlar asosida takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

References:

1. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Education.
2. Crystal, D. (2012). English as a Global Language. Cambridge University Press.



3. Dudley-Evans, T., & St John, M. J. (1998). *Developments in English for Specific Purposes*. Cambridge University Press.
4. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A Learning-centred Approach*. Cambridge University Press.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
6. Swales, J. M. (1990). *Genre Analysis: English in Academic and Research Settings*. Cambridge University Press.